UDK: 494.3.413.19 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a76**

CHIG‘ATOY TURKIYNING ADABIY-USLUBIY XUSUSIYATLARI (XIX ASR FARG‘ONA TARIXIGA OID ASARLAR MISOLIDA)

A STUDY ON LITERARY STYLE OF MODERN CHAGHATAI TURKIC LANGUAGE REPRESENTED ON 19 CENTURY’S CHAGATĀI CHRONICLES

ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИТЕРАТУРНОГО СТИЛЯ ЧАГАТАЙСКОГО ЯЗЫКА, ПРЕДСТАВЛЕННОГО В ФЕРГАНСКИХ ЛЕТОПИСЯХ В XIX ВЕКЕ

***Song Ho-Lim*[1]**

[1]Song Ho-Lim − Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti doktoranti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qo‘qon xonliga va uning keyingi mustamlaka davrlarida (1709-1917) turkiy tarixchilari tomonidan yozilgan turli chig‘atoy manbalari ma’lumotlaridan foydalanilgan bo‘lib, unda Farg‘ona vodiysidagi o‘troq turkiy musulmonlar (sart)ning ona tili – chig‘atoy turkiyning adabiy-uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье использованы сведения из различных источников, написанные тюркскими историками периода Кокандского ханства и его постколониального периода (1709-1917 гг.), в которых родной язык оседлых тюркских мусульман (он же сарт) в Ферганской долине - литературно-исторический анализируются методологические особенности чагатайского тюркского языка.

Abstract

This article uses information from various sources written by Turkic historians during the Khoqand khanate and its post-colonial period (1709-1917), in which the native language of the settled Turkic Muslims (aka. Sart) in the Ferghana Valley - The literary and methodological features of the Chagatay Turkic are analyzed.

Kalit so‘zlar *chigatoy tili, ozbek tili, uyghur tili, forsiy, turkiy, forsiy adabiyot*

Ключевые слова: *чагатайский язык, узбекский язык, уйгурский язык, персидская литература, тюркская литература, персидская поэзия*

Key words: *Chagatai language, Uzbek language, Uyghur language, Persian literature, Turkic literature, Persian poetry.*

KIRISH

Farg‘ona vodiysi O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston yerlaridan iborat bo‘lib, murakkab chegaralarga ega. Chegara chiziqlari bir-biri bilan shunday kesishib, kirishib ketganki, bir qancha joylarda anklavlar vujudga kelgan. Farg‘ona vodiysi dashtlar, adirlar va tog‘li hududlarni o‘zida jamlagan rang barang va zich tabiiy muhitga ega. O‘tmishda, Bobur Farg‘onani mevali daraxtlar va donga boy bo‘lgan intensiv o‘lka deya tariflagan; *“Muxtasar viloyattur. Oshliq va mevasi farovon”* **[1,1]** Bu jihatlar Farg‘onada qadim davrlardan turli etnik guruhlar jamlanishiga asosiy sabab bo‘lib kelgan. Yaqin tarixiy manbalarga nazar solsak, Farg‘ona yerlarida qipchoq, qirg‘iz, o‘zbek, sart va tojik etnik guruhlari mavjud bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Biroq, ayni u davrda ular zamonaviy tilda “xalq” tushunchasini ifodalovchi “millat” sifatida qayd etilmagan, balki “jamoat” yoki “toifa”ning tor doirasi bo‘lgan qabila yoki kichik urug‘ sifatida uchraydi. Rossiya Imperiyasi tomonidan bosib olingan Markaziy Osiyodagi qozoq, qirg‘iz, o‘zbek va tojiklar keyinchalik Sovet Ittifoqidan ajralib, mustaqil “millat”ga aylandilar va o‘zlarining milliy jamiyatlarini shakllantirdilar.

Unday bo‘lsa, qolgan qipchoq va sartlar qayerga g‘oyib bo‘ldi? Binobarin, hozirgi o‘zbek xalqining 3 yirik ajdodlari bor; o‘zbeklar, qipchoqlar va sartlar. Tarixiy manbalarning xabar berishiga ko‘ra hozirgi o‘zbek xalqining tili, madaniyati va diniga eng yaqin bo‘lgani na o‘zbeklar va na qipchoqlar (ko‘chmanchilar), balki shahar ahliga xos yaqqol jihatlarga ega bo‘lgan sartlardir. Xususan, Qo‘qon xonligiga oid tarixiy qaydnomalarda *Sart* terminologiyasi vodiyning o‘troq turkiy musulmonlari uchun atama sifatida qo‘llanilgan. **[2]** Biroq, ba’zi vohalik olimlar sartni etnik termin bo‘lgan “tojik”ning sinonimi deb hisoblashadi. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy sartlarni turkiy etnik guruh sifatida shakllanganligiga qarshi o‘laroq “Oyna” jurnalida bir necha marta tanqidiy fikrlarini bayon etgan. **[3]** Ammo, u keltirayotgan dalillar asosan Buxoro va Samarqand hududlari bilan

bog‘liq vaziyatga aloqador. Hamda Turkiston turklarining asosiy qismi bo‘lgan vodiylik o‘troq xalqlar sart bo‘lib bizdan ajralmasin degan pan-turkizm g‘oyasi Behbudiy kabi jadidchilar orasida keng tarqalgan.

Lekin “muxtasar” vodiyning etnik sharoitlari yirik vohaga nisbatan ham bir xil emas. Darhaqiqat, toshkentlik va vodiylik mullolar, jadidlarning ko‘pchiligi sart etnik guruhining mavjudligini tan olishgan. Misol uchun, toshkentlik jadidchi Muxtor Bakir o‘zining “Turkiston” kitobida sartlarni “qiyofatlari ham siymolari jihati bilan tojiklarga o‘xshash bo‘lib, tillari chig‘atoy shevasidagi turkchadir”, “Sartlar Turkistonda ikki yarim milliyon qadar bo‘lib, ko‘proq shaharlarda turalar.” deb yozgan. **[4,41]**

1. Farg‘ona vodiysi sartlari qaysi tilda so‘zlashgan?

Farg‘ona vodiysidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqida xabar beruvchi XIX asr chig‘atoy tarixiy manbalariga qarasak, sart va tojik o‘rtasidagi chegara yanada oydinlashadi. Qo‘qon xonligining yuksalishi va tanazzuli haqida batafsil ma’lumot beradigan “Tarixi Turkiston” asarining bayonlari “Qozoqiyya”, “Qirg‘iziyya”, “O‘zbekiyya” va “Sartiyya”larni Farg‘onadagi asosiy etnik guruh sifatida tasniflaydi. Kitobning muqaddimasida muallif Mullo Olim Maxdum Hoji ushbu tarixni yozishga bo‘lgan istagi sababini quyidagicha tariflaydi:

“xususan tavoif-i atarok (turklar) va o‘zbeklar o‘tgan urug‘ va qabilalarini yodda tutmoqga g‘oyitda harakat qiladurlar. Ammo bizning Turkiston Sartiyyalari tarixga ko‘p ahamiyat bermay ikki uch otadan ilgori o‘tgan salaflarini va ularni zamonalaridagi hikoyat va voqeatlarni aslo bilmaydurlar. **[…]** *Farg‘ona va Xo‘qand xonlari va ularning ahvolatlarini ba’zi tavorixlardan va ko‘hna sol odamlardan va ham xud kamina o‘zim eshitgan va ko‘rganlarimni soda va rasmi chig‘atoy turk tilida musavvad aylab Tarixi Turkiston nom qo‘yib shuru’ qildim.”* **[5, 4]**

Muallif sartlarning millatchilik tuyg‘usini qo‘zg‘atishni xohlaydi, chunki ular o‘zbek va boshqa turkiy qabilalarga qaraganda o‘zlarining etnik o‘ziga xosligiga be-e’tibor edilar. Shu yerda biz sartlar foydalangan til “chig‘atoy turkiy” tili bo‘lganiga diqqat qilamiz. U holda, chig‘atoy turkiy o‘zi nima? Buni “Shajarai Turk” muallifi Abulg‘ozi Bahodurxonning yozuvlari orqali bilib olamiz;

“Bu tarixni yaxshi va yomon barchalar bilsin deb turkiy tili birlan aytdim. Turkini ham andak aytibman kim, besh yashar og‘lon tushunar bir kalima chig‘atoy turkisindan, forsidan va arabidan qoshmayman, ravshan bo‘lsin deb, agar ajalning unday kelmasa ushbu kitobni forsi tili birlan murassa’ etmok ko‘ngilimda bor” **[6, 36]**

“Shajarai Turk” asari aslida o‘qishga juda oson bo‘lgan turkiy tilda, arab-fors lug‘ati va iboralari qo‘llanmagan holda yozilgan. Boshqacha aytganda, chig‘atoy turkiy tili ko‘chmanchi “turkiylar” uchun tushunishga biroz qiyin bo‘lgan til ekanligini taxmin qilish mumkin. Ammo madrasada arab-fors tillaridan tahsil olgan o‘troq turkiy xalqlar uchun bu unchalik qiyin emas edi. Misol uchun, zamonaviy o‘zbek adabiyotining eng mashhur ramziy qahramoni Furqat (Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li) chig‘atoy turkiy tilida so‘zlashgan va yozgan, hamda o‘zini hech qachon “o‘zbek” yoki “turk” deya tanishtirmagan. U o‘zini “sart” deb hisoblagan.

“Andin Merv, Oshxobod, va Uzun-odo to Batumigacha ul otish aroba ichida Sartiyya xalqidin tanho o‘zim erdim. va boshqalari hamma Armeni va 'Ajim (Eroni) va Dog‘eston xalqi erdilar. Bu qadar yo‘lda kelguncha faqat Rossiya xalqi birlan so‘zlashib keldim.” **[7, 223-224]**

Furqatning asarlari asosan chig‘atoy turkiyda yaratilgan bo‘lib, uning she’rlarida arab-fors tillari unsurlari ko‘p uchraydi. U chig‘atoy turkiyning yana bir davomchisi bo‘lmish uyg‘urlarga ham quyidagicha munosabatda bo‘lgan:

“Ul tariqa nag‘malar chalishib ashula aytganlarida erkak va xotinlari birdan qo‘shilib o‘ynaydir. Ularning ashula va xonishlari Rossiya qo‘l ustidagi sartlarning xonishga o‘xshash bo‘lib, ba’zi vaqtda “ura” deganday eshitiladi. Xitoy qo‘l ustidagi sartlarning xotin va qizlari (bunaqa) bo‘ladir. Rossiya qo‘l ustidagi sartlarni qiz va xotinlari erkaklar bilan aralashmaydidir.” **[8, 250-251]**

2. Chig‘atoy turkiyning adabiy-uslubiy xususiyati

Xo‘sh, XIX asrda Farg‘onadagi chig‘atoy turkiyning adabiy uslubi qanday edi? Avvalo, sart xalqi ikki tilli (turkiy-forsiy) yoki uch tilli (turkiy-arabiy-forsiy) so‘zlaguvchi bo‘lganini unutmasligimiz lozim. Furqat kabi sartlarning aksariyati madrasada arab va fors tillarini chuqur o‘rgangan, lekin ular uyda va turkiy jamoada turkiy tilda so‘zlashgan. Bu hol hozirgi Buxoro yoki Samarqanddagi tojiklarning o‘zbek jamoat joylarida o‘zbek tilida muloqot qilib, oila davrasida esa tojik tilida

gaplashishiga o‘xshaydi. Hozirgi O‘zbekiston poytaxti Toshkentda esa rus tili ziyolilar orasidagi *lingua franca* bo‘lib, ko‘pgina ilmiy ishlar ayni shu tilda yoziladi. O‘zbek adabiyotining adabiy uslubiga ham rus uslubining ta’siri seziladi. Xuddi shunday, sart yozuvchilarning asosiy qismi fors adabiy uslubining afzalliklaridan foydalanganlar. Bunday yo‘nalish XIX -asrda sart tarixchilari orasida keng urf bo‘lgan.

Forsiy She’riyat - “Tarixi Turkiston” asarining har-bir bobi o‘rtasida forsiy she’rlar uchraydi. Bu esa muallifning zullisonayn ijodkor ekanligini isbotlab, uni ham turkiy ham forsiy tillarda ijod qila olganligini ko‘rsatadi. Bobning asosiy qismi yakunlangach, odatda muallif shu bobga tegishli forsiy she’r keltiradi.

“Tarixi Turkiston”dan tashqari, Mirzo Olim Toshkandiy ibn Mirzo Rahimning “Ansob us-Salotin va Tavorix ul-Xavoqin (Sultonlar shajarasi va xoqonlar tarixi)” tarixiy asarida ham forsiy she’rlar keng qo‘llanilgan. Lekin barcha chig‘atoy yilnomalarida ham forsiy she’rlar mavjud emas. Bu muallifning fors tilini qanchalik yaxshi bilishi va uning yozish qobiliyati qay darajada ekanligiga bog‘liq. Shuningdek, ayrim yozuvchilar forsiy nazm o‘rniga turkiy she’rlardan foydalanishgan. Masalan, Ishoqxon To‘ra Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asarida forsiy she’rlardan ko‘ra turkiy o‘rindoshlar ko‘p uchraydi.

Takror - Chig‘atoy yilnomalarining aksariyatida sinonim so‘zlarning takrorlanishi mavjud. Hozirgi o‘zbek adabiyotida bunday xususiyat bo‘lmasa-da, XIX -asrda Markaziy Osiyoda “takror” nafaqat chig‘atoy adabiyotida, balki fors adabiy uslubining konkret tarzi sifatida ham qo‘llanilgan. Fors tili so‘zlashuvchilari soni jihatidan G‘arbiy Turkistonga nisbatan kamroq bo‘lgan Sharqiy Turkistonda ham “takror” badiiy uslubning keng tarqalgan yo‘nalishi hisoblanadi. Masalan, “Tarixi Hamidiy” muallifi Sayramiy o‘z kitobining muqaddimasida takror uslubidan keng foydalangan. Biroq, bu adabiy vosita faqatgina paragrafni bezash uchun xizmat qilgan va muallifning arab-fors tili bo‘yicha mahoratini ko‘rsatgan.

“{Mahmūl-i faqīr al-ḥaqīr wä kaṯīr al-taqṣīr}, aʿnī Mullā Mūsā ibn Mullā ʿĪsā K̲ʷāja Sayrāmī, bu ṭarīqada {ʿarẕ-i inkisār wä ʿajz iftiqārliq} birlä maʿlūm qiladurlar kim, bu Moğulistān yurtlari qadim al-ayyām musulmān k̲ānlaridin keyin fağfūr-i činğä {tābeʿ wä munqād} bolup bir yuz yigirma beš yāki bir yuz ottuz beš yil muddati otgandin song, {taqadīr azalī wä mašaytu lam-yazalī} arada wä taqadīrī birla islām āftābi šuʿāʿī bu syā šahr Moğulistān yurti ahāli farqi – sarlariğä tulūʿ yetip wä ẓalmat buluti ʿadam maʿdaniga yašinip Kučar mamlakatidin Rāšid al-Dīn K̲ʷājam wä K̲otandin Mullā Ḥabib-Allah Ḥājī wä Tunganīlar bir birlari {saʿy wä kūšīš} bil-āṣāla {k̲ān wä pādišāh} bolup kāfirlarğä mustūlī (b)olup ḥukūmlarini jārī qilip, {jang-i ğazāt wä qatl-i ʿām}ğä saʿy-i {kūšīš wä kešīš} mā-lā-kalāmlar körgüzüp turğan ḥāl-i maqāllarda Farğāna wilāyatidin Muḥammad Yaʿqūb Bek Qūšbegi nām bir bahādur-i nāmdār, ṣāḥib-i tadbir ʿālā maqām istīlāʾ tapip ḥukumlarini jārī qilip altä yildin keyin tārīk̲ bir ming ikki yuz sakkiz altä bolğanida ʿaql idārgi k̲alq nafsāniğä ğālib kelip özini balki bu yettä šahr ahlīni janāb {ḥurmatlu wä jalālatlu}, k̲alifa-i rūy-i zamīn, dawlat ʿaliya wä ʿosmāniyya dawlat wä ḥimāyatlariğä {muʿīn wä muqarrir} qilip tašlap… **[9, f1a]**

Qavs {} ichidagi barcha so‘zlar takror qo‘llanishdir. Masalan, tobe’ va munqad so‘zlarining ma’nolari bir birga o‘xshash. Ko‘makchi fe’l vazifasida kelganda esa ot yoki sifat bo‘lib qo‘llanilishidan tashqari, izofa yordamida murakkab gaplarda ham ishlatiladi.

Izofa - Aksariyat chig‘atoy adabiyotida nafaqat so‘z qo‘llanishi, balki grammatik jihatdan ham farqlanadigan holatlar ko‘p. Xususan, hozirgi o‘zbek va uyg‘ur adabiyotida kam uchrovchi, fors tili grammatik elementi bo‘lmish “izofa” XIX asr adabiy uslubida keng ishlatilgan. Shuning uchun asl nusxani arab va fors tillaridan zaruriy bilimlarsiz to‘g‘ri tarjima qilib bo‘lmaydi. **[10, 33]** Izofa hind-yevropa tillarining o‘ziga xos xususiyatidir. Ingliz tilida izofa vazifasini “of” bajaradi;

Misol 1

fağfūr-i čin **[forsiy]**
Emperor of China **[ingliz]**
činning fağfūri, čin fağfūri **[turkiy]**

Misol 2

k̲alifa-i rūy-i zamīn **[forsiy]**
caliph of surface of the earth **[ingliz]**
zamīn rūyidagi k̲alifa **[turkiy]**

Qolaversa, yuqorida ta’kidlanganidek, bu grammatik element turkiy adabiy uslubga xos bo‘lmagani uchun “Shajarai Turk” asarida izofa qo‘llanilmagan. Darhaqiqat, mashhur turk adibi Doktor Rizo Nur “Shajarai Turk”ni 1925 yilda tarjima qilib nashr etganida kitob nomini “Turk Shajarasi” deb o‘zgartirgan. Chunki sof turkiy til matnida hech qachon izofa uchratmaysiz. Shuningdek, asl chig‘atoy arab yozuvida izofani ifodalash uchun belgi ham kam holatlarda uchraydi. Binobarin, fors tilini bilmagan oddiy turkiy xalq chig‘atoy turkiy kitoblarini o‘qib, tushuna olmaydi. Shuning uchun ham Abulg‘ozi Bahodur turkiy xalqlarning nasl-nasabini tushuntirishda izofadan foydalanmagan. Uning fikricha, “turk” faqat Mo‘g‘ul imperiyasining avlodlari bo‘lgan ko‘chmanchi xalqlarning nomidir.

1876-yilda Qo‘qon xonligi tugatilganidan keyin sartlarning ko‘pchiligi hech ikkilanmay buyuk Rossiya imperiyasi bilan savdo faoliyatini davom ettirdilar va bu orada Usmonli imperiyasidan yangi madaniy qadriyatlar va turkiy millatchilik g‘oyalarini o‘zlashtirdilar. Sartlar aslida e’tiqodli musulmon bo‘lib, islom dinini chuqur o‘rganish uchun madrasada arab va fors tillaridan ta’lim olganlar. Biroq, aynan ulardan ba’zilar islom tamadduni duch kelayotgan inqirozni hammadan ko‘ra oldinroq anglaganlar. Jadidlarning sa’y-harakatlari sartlar o‘zlarining taraqqiyotdan ortda qolayotganliklarini ich-ichidan o‘ylaganliklarini ko‘rsatadi. Shunday qilib, sartlar o‘zlarini “turk” sifatida qaytadan yaratdilar va Rossiya imperiyasi boshqaruvidagi yangi paydo bo‘lgan Turkiston mustamlakasida o‘zbeklar va qipchoqlarni birlashtirishda ma’rifatchi sifatida katta rol o‘ynadilar.

Chunonchi, mustamlaka yillaridagi chig‘atoy turkiy tili boy sart savdogarlari homiyligidagi maktablar va bosmaxonalar ko‘payib borishi natijasida standart turkiy tilga aylana boshlagan. Shu bois, mavjud chig‘atoy turkiy adabiyotida tez-tez qo‘llanilgan arab alifbosi ham fors tilidan ko‘ra turkiy talaffuzga mos keladigan qilib takomillashtirildi. Bundan tashqari, 1920-yillardan boshlab Markaziy Osiyoning keng ko‘lamli kommunistlashish jarayoni madrasa ta’lim uslubi va an’anaviy islom ta’limini maorif tizimidan yanada siqib chiqara boshladi. Sovet davrida esa rus tilining hukmronligi fors tiliga nisbatan ko‘tarilib ketdi va tabiiyki ikki tilli sartrlar maktabda rus tilini o‘rganishga ko‘proq harakat qila boshladilar. O‘zbek adabiyotida 1920-yillaridan boshlab yuqorida sanab o‘tilgan *forsiy she’riyat*, *takror*, *izofa* unsurlarining sezilarli darajada qisqargani yoki yo‘qolganini ko‘rish mumkin.

XULOSA

Qo‘qon xonligi davrida yaratilgan tarixiy asarlar, asosan, ayni vaqtda xattot va iste’dodli ijodkor bo‘lgan mullolarning shaxsiy ijodi yoki hukmdorlarning saltanatga egalik maqomini tasdiqlovchi asarlardan iborat bo‘lgan. Qalam tebtargan ko‘plab sartlar tarix yozishni tasviriy san'atning bir turi sifatida hisoblashgan. Binobarin, o‘sha davr tarixchilari orasida “Tarixi Ali Quli” asari muallifi Muhammad Yunusjon Shig‘ovul Toshkandiy kabi siymolar ham mashhur xattot ham zullisonayn (forsiy-turkiy) adib sifatida e’tirof etilgan. Shu bois, o‘sha davr tarixshunosligida badiiy asarlar yaratishda forsiydan foydalanilib, fors adabiy uslubi chig‘atoy adabiy uslubiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Ammo, mustamlakachilik davrida esa jadidlarning jamoatchilikni o‘z siyosiy g‘oyalarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan harakatlari doirasida ko‘plab tarixiy kitoblar nashr etilgan. Shuning uchun, aksar hollarda rasmiy uslubga solingan matniy yozuv va tizimli grammatik elementlarni topish mumkin. Demak, jadidlar davridan boshlab turkiy yozuvchilar orasida fors adabiy an’analari asta-sekin yo‘qola boshlaganini ko‘rishimiz mumkin. Sovet davrida chig‘atoy turkiy tili o‘zining “o‘zbek tili” deb ataluvchi yangi nomini olib, milliy til maqomini egallaganligi sababli, undan arab-fors unsurlari deyarli chiqarib tashlandi. Bu Turkiya Respublikasida Otaturk tomonidan amalga oshirilgan sof turkiy regressiya siyosatiga o‘xshash. Biroq Turkiyada olib borilgan “tozalash” ishlari islomgacha bo‘lgan qadimgi turkiy til me’yorini o‘rnatgan bo‘lsa, o‘zbek me’yorlari esa chig‘atoy turkiyda uchrovchi ortiqcha arab-fors tillari adabiy uslubi unsurlarining bir qismini yo‘q qildi xolos. Shundan so‘ng o‘zbek tili yangi rus so‘z birlilari, rus adabiyotining ma’muriy terminlari va yangi materiallarga oid an’analarini qabul qila boshladi.

ADABIYOTLAR

1. Ẓahīr ud-Dīn Muḥammad Bābur, (eds.) 間野·英二. 『バーブル・ナーマの研究　I　校訂本』京都: 松香堂. 1995.

2. Masalan, 1) Mahmud Hokim Yayfoniyning yaqin tarixga oid “Xullas at-Tavorix” asari. 2) Muhammad Fozilbek Qozi Muhammad o‘g‘lining “Mukammal Tarixi Farg‘ona” asari 3) Ishoqxon To‘ra Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asari. 4) Mullo Aziz ibn Mullo Muhammad Rizo Marg‘inonining “Tarixi Azizi”asarlarida sartlar tojiklardan boshqa millat sifatida keltiriladi.

3. Maḥmūd Ḵʷāja Behbūdī. «Oyna» jurnali, 1915 yil, 22, 23, 25, 26-sonlar, 314-315, 338-340, 386-388, 478-480 betlar.
4. Muḵtār Bakir. *Tūrkistān: Juğrāfī, Tārīḵī, ham ʿAmrānī jihatlardan (birinči tabʿ)*, Tashkent: Barādarān K. ham M. Bākiroflar wa Qompaniyasi Tijāratḵānasi. 1918.
5. Mullā ʿAlim Maḵdūm Ḥājī. *Tārīḵ-i Turkistān*, Tashkent: Turkistān General Gūbernaṭūri bāšmaḵānasi. 1915.
6. ʿAbū al-Ğāzī Bahādur Ḵān, (eds.) Bārūn De Mazūn. *Šajara-i Tūrk*, St. Petersburg: Akademiya-i Imperāṭūriya-i bāšmaḵānasi. 1871.
7. Ḏākirjān Furqat (eds.) Xalid Rasul. *Ḏākirjān Furqat Majmūʿasi: ikkinči jild*, Tashkent: Sharqshunoslik Instituti. 1990.
8. Ḏākirjān Furqat (eds.) Xalid Rasul. 1990.
9. Mullā Musā b. Mullā ʿĪsā Sayrāmī. *Tārīḵ-i Ḥamīdī*, Lund University Library: Jarring Prov. 163. 190?.
10. Song Ho-Lim, Hussamiddin Tuyg‘un, “Boburnomaning hozirgi o‘zbek va uyg‘ur tiliga tarjimasi bo‘yicha qiyosiy tadqiqot – sifat va ravish masalasiga e’tibor qaratildi” *SamDU Ilmiy Axborotnoma*, 2022 yil 2-son.